O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884

ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol. 2 No. 4

2026

International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research

Volume 2 Issue 4
2026

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro jurnali

4-son
2026

Международный журнал современных научно-технических исследований

Том 2 Выпуск 4
2026

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas’ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay’ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O’zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O’zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro‘yxatidan o‘tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O‘zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© “O‘zMU Jizzax filiali” – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko‘chasi, 259-uy.

OLIY TA'LIM MUASSASALARI PEDAGOGLARINING MEHNAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KIBERIJTIMOIYLASHUVNING AHAMIYATI

Ishmuradov Bunyodjon Farxodovich

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti, mustaqil tadqiqotchi.
e-mail: bunyodjon8892@gmail.com

Annotatsiya.

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining mehnat samaradorligini oshirishda kiberijtimoiylashuv jarayonining tutgan o'rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shiddatli raqamlashtirish sharoitida pedagogik faoliyatning an'anaviy shakllardan raqamli va gibrid ta'lim muhitiga o'tishi, o'qituvchilarning kasbiy moslashuvi hamda raqamli madaniyatini shakllantirish masalalariga ham qisman to'xtalib o'tilgan. Kiberijtimoiylashuv yondashuvining asosiy tarkibiy qismlari, an'anaviy va innovatsion qadriyatlarning o'zaro integratsiyasi hamda pedagoglarning ish unumdorligiga ta'siri ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ilg'or xalqaro tajriba sifatida S. Amanjolov nomidagi Sharqiy Qozog'iston universiteti faoliyati misolida OTMlarda raqamli pedagogika laboratoriyalarini tashkil etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: kiberijtimoiylashuv, mehnat samaradorligi, raqamli ta'lim muhiti, innovatsion qadriyatlar, raqamli pedagogika laboratoriyasi.

ЗНАЧЕНИЕ КИБЕРСОЦИАЛИЗАЦИИ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ТРУДА ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Ишмурадов Бунёджон Фарходович

Национальный институт педагогики воспитания имени Кары Ниязи, независимый исследователь.

Аннотация.

В данной статье с научно-теоретической точки зрения проанализированы роль и значение процесса киберсоциализации в повышении эффективности труда профессорско-преподавательского состава высших учебных заведений. В условиях стремительной цифровизации также частично рассматриваются вопросы перехода педагогической деятельности от традиционных форм к цифровой и гибридной образовательной среде, профессиональной адаптации преподавателей и формирования их цифровой культуры. Исследованы основные компоненты подхода к киберсоциализации, взаимная интеграция традиционных и инновационных ценностей, а также их влияние на производительность труда педагогов. Кроме того, на примере деятельности Восточно-Казахстанского университета имени С. Аманжолова как передового международного опыта представлены научно-практические предложения по организации лабораторий цифровой педагогики в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: киберсоциализация, эффективность труда, цифровая образовательная среда, инновационные ценности, лаборатория цифровой педагогики.

THE ROLE OF CYBERSOCIALIZATION IN ENHANCING THE WORK EFFICIENCY OF HIGHER EDUCATION INSTITUTION TEACHERS

Ishmuradov Bunyodjon Farxodovich

National Institute of Educational Pedagogy named after Qori Niyoziy, Independent Researcher.

Abstract.

This article provides a scientific and theoretical analysis of the role and significance of cybersocialization in enhancing the work efficiency of academic staff at higher education institutions. In the context of rapid digitalization, the article also briefly

addresses the transition of pedagogical activities from traditional forms to digital and hybrid learning environments, teachers' professional adaptation, and the development of their digital culture. The main components of the cybersocialization approach, the integration of traditional and innovative values, and their impact on teachers' work productivity are examined. Furthermore, drawing on the experience of S. Amanzholov East Kazakhstan University as an example of advanced international practice, the article presents scientific and practical recommendations for establishing digital pedagogy laboratories in higher education institutions.

Keywords: cybersocialization, work efficiency, digital learning environment, innovative values, digital pedagogy laboratory.

Kirish. Haqiqiy inson dunyosi va virtual voqelik o'rtasidagi chegaralarning xiralashishi kelajakda raqamli texnologiyalarning yetakchilik rolini oshiradi. Bu, o'z navbatida, sun'iy intellektning inson faoliyatiga ta'sirini oshirib, qurilmalar ishiga qaram bo'lib qolish xavfini yuzaga keltiradi. Insonning so'nggi voqea va hodisalarni to'liq hamda o'z vaqtida tushunishga vaqti yetmasligi bilan hozirgi dunyodagi o'zgarishlarning shiddatli tezligi o'rtasidagi qarama-qarshilik barcha fanlar oldida yangidan-yangi tadqiqot ishlarini olib borish zaruratini yuzaga keltirdi. Demak, insoniyat muhim ijodiy komponentni faollashtirishga majbur, biroq barcha raqamli transformatsiyalar o'z-o'zidan harakat qilishini tushunishimiz kerak. Bunday vaziyatni yengib o'tish, shuningdek, innovatsion qadriyatlarga asoslangan yangi voqelikda izchil, maqsadli va ma'noli xulq-atvorni qayta tiklashga an'anaviy insoniy qadriyatlarni saqlash hamda himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlar orqali erishish mumkin. Aytib o'tish joizki, kiberijtimoiylashuv makoni an'anaviy va innovatsion qadriyatlarning o'zaro ta'sirini rivojlantiruvchi dinamik jarayondir.

Hozirgi vaziyatda butun jamiyatning jamoaviy mentaliteti hamda shaxsning o'zligini anglashi kiberijtimoiylashuv makonida shakllanayotganiga shubha qila olmaymiz. Barcha munosabatlar elektron formatga o'tib bo'ldi, desak ham bo'ladi. An'anaviy madaniyat ustunligi past bo'lgan jamiyatda fuqarolar o'zga qadriyatlar bilan yuzma-yuz keladilar va ushbu ko'rsatkichlarni qabul qilishga majbur bo'lishadi. Hozirgi kunda an'anaviy va innovatsion qadriyatlar tutashgan g'arbiy qadriyatlarning ustunligi ko'zga tashlanmoqda [1].

Shu sababli oliy ta'lim tizimida ham ushbu umumjamiyat tendensiyalarini inobatga olish alohida dolzarblik kasb etadi. Raqamli makonda shakllanayotgan ushbu murakkab qadriyatlar va munosabatlar muhiti OTM pedagoglarining kasbiy faoliyatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatib, ulardan an'anaviy va innovatsion yondashuvlarni to'g'ri muvofiqlashtirishni talab qiladi. Bizningcha, pedagoglarning kiberijtimoiylashuv jarayonini to'g'ri yo'naltirish hamda ularning raqamli faoliyat madaniyatini shakllantirish shiddat bilan o'zgarib borayotgan ta'lim muhitida vaqt resurslarini tejash va mehnat samaradorligini oshirishning hal qiluvchi omili hisoblanadi.

TAHLIL VA MUHOKAMA

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar va yangi pedagogik standartlarning joriy etilishi ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etishni talab etmoqda. Shiddat bilan rivojlanayotgan raqamli muhitda an'anaviy o'qitish usullari yetarli bo'lmay qolayotgani sababli pedagoglarning kasbiy faoliyatini yangicha texnologiyalar va kiberamaliyotlar asosida tashkil etish hayotiy zaruratga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining mehnat samaradorligini oshirishda ularning kiberijtimoiylashuv jarayonini to'g'ri yo'naltirish, axborot-kommunikatsiya makonida samarali faoliyat yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish alohida dolzarblik kasb etadi.

Axborot va internet texnologiyalari jadal rivojlanayotgan XXI asrda ta'lim sohasi ham raqamli makonga jiddiy ko'chmoqda. Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish to'liq axborot-kommunikatsiya va raqamli platformalar bilan hamrohlik qilinmoqda. Bunday sharoitda faqat talabalarning emas, balki pedagoglarning ham kasbiy kiberijtimoiylashuv darajasi hal qiluvchi o'rin tutadi. O'qituvchilarning kibermafkuraviy va raqamli ko'nikmalarga ega bo'lishi ularning mehnat samaradorligini oshirish, vaqt resurslarini tejash hamda zamonaviy ta'lim standartlariga mos faoliyat yuritishining asosiy sharti hisoblanadi.

O'quv va tashkiliy jarayonlarga samarali kirishib ketish oliy ta'lim muassasalarida faoliyat boshlayotgan, ayniqsa, raqamli ta'lim muhitiga moslashayotgan pedagoglar uchun muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi sir emas. Aksariyat o'qituvchilar uchun yangi akademik jamoaga moslashish, zamonaviy axborot tizimlari va elektron platformalardan unumli foydalanish hamda o'quv jarayonini raqamlashtirish talablariga ko'nikish muayyan vaqtni talab etadi. Ushbu moslashuv jarayonining cho'zilishi natijasida pedagogning asosiy e'tibori va vaqt resurslari ta'lim sifatini oshirish hamda ilmiy-ijodiy faoliyatga emas, balki tashkiliy-texnik moslashuvga yo'naltirilib qoladi, bu esa uning mehnat samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli pedagoglarning kasbiy kiberijtimoiylashuvini qo'llab-quvvatlash hamda ularning raqamli madaniyatini shakllantirish bo'yicha innovatsion didaktik va tashkiliy texnologiyalarni joriy etish bugungi kunda dolzarb zaruratga aylanmoqda.

To'g'ri, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarishning ko'plab metodikalari mavjud. OTM pedagoglarining ish unumdorligini oshirish va raqamli ta'lim muhitiga moslashuvini ta'minlashda kasbiy va shaxsiy kiberkommunikatsiyani tashkil etish texnologiyasi eng samarali vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Ushbu texnologiyaning mohiyati pedagogning raqamli makonda o'z kasbiy brendi va interaktiv muloqot

tizimini yaratishidan iborat. Jumladan, oʻqituvchining shaxsiy veb-sayti, kasbiy blogi yoki raqamli shaxsiy kabineti pedagogga ta'lim oluvchilar bilan tezkor va tizimli aloqa oʻrnatish, oʻquv materiallarini avtomatlashtirilgan tarzda ulashish hamda tashkiliy masalalarga ketadigan vaqtni keskin tejash imkonini beradi. Pedagog resurslarini ikkinchi darajali ishlarga emas, shaxsiy ilmiy-pedagogik faoliyat unumdorligini oshirishga yoʻnaltiradi.

Mehnat samaradorligini oshirishga kiberijtimoiylashuv yondashuvi asosida yotuvchi tayanch tushunchalar Xie Yajinning "Raqamli iqtisodiyotda mehnat samaradorligini oshirishga kiberijtimoiylashuv yondashuvi" nomli tadqiqot ishida ilgari surilgan va atroflicha tahlil qilingan. Mehnat samaradorligini oshirishda kiberijtimoiylashuv yondashuvining kibernetika, iqtisodiyot, sotsiologiya, axborot texnologiyalari hamda murakkab tizimlar nazariyasi qoidalariga asoslangan fanlararo konsepsiya sifatidagi mohiyatini yoritish uchun uning tayanch tushunchalarini koʻrib chiqish lozim (1-jadval) [2].

1-jadval. Mehnat samaradorligini oshirishda kiberijtimoiylashuv yondashuviga oid tayanch tushunchalar va ularning mazmuni

Tushuncha	Mazmuni	Muallif(lar)
Kiberfizik tizim	Uchta asosiy elementning integratsiyasi: fizik obyektlar, dasturiy ta'minot va kommunikatsiya tarmoqlari.	Kuteynikov D.L., Ijayev O.A., Zenin S.S., Lebedev V.A.
Kiberijtimoiylashgan tizim	Inson va mashina intellektini jamoaviy superintellektni yaratish uchun bir nuqtaga jamlash imkonini beruvchi, jamoaviy intellekt tomonidan shakllantiriladigan alohida "neyrosfera" muhitida faoliyat koʻrsatuvchi va oʻz-oʻzini tashkillashtiruvchi oʻzaro ta'sirlashuvchi tizimli-maqsadli akktor-ekotizimlar majmuasi boʻlib, sivilizatsiyaning uygʻun va texnologik rivojlanishi manbai hisoblanadi.	Babkin A.V., Fedorov A.A., Liberman I.V., Klachek P.M.
Kiberijtimoiylashuv	Raqamli texnologiyalar ta'siri ostida shaxs tuzilishi, uning qadriyatlari va ijtimoiy rollarining sifat jihatidan oʻzgarishi jarayoni boʻlib, raqamli muhitda samarali faoliyat yurituvchi yangi turdagi inson shakllanishiga olib keladi.	Pleshakov V.A.
"Chuqur feyk"	Neyron tarmoqlari yordamida tasvir, video, nutq yoki hujjatni soxtalashtirish boʻlib, voqelikdan farqlash qiyin boʻlgan kontentni tayyorlash texnologiyasi.	RF Prezidenti huzuridagi Inson huquqlari boʻyicha kengash (SPCh) ma'ruzasi

Zamonaviy oliy ta'limda pedagogik faoliyatning mazmuni va shakllari raqamlashtirish jarayonlari ta'sirida tubdan oʻzgarib bormoqda. Bunday sharoitda oʻqituvchilarning kasbiy imkoniyatlarini kengaytirish va ish vaqtidan unumli foydalanishini ta'minlash yangicha raqamli faoliyat madaniyatini shakllantirishni ham taqozo etadi. Shu sababli kiberijtimoiylashuv fenomeni pedagog mehnatini tashkil etish, uning akademik hamjamiyat bilan oʻzaro ta'sirini yaxshilash va yakuniy ish natijadorligini oshirishning koʻp oʻlchovli mexanizmi sifatida namoyon boʻladi. Tadqiqotimiz davomida ajratib koʻrsatilgan hamda yuqoridagi jadvalda oʻz aksini topgan tayanch tushunchalar mehnat samaradorligini oshirishda kiberijtimoiylashuv yondashuvining mohiyati va mazmunini atroflicha ochib berishga imkon beradi.

Jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy holati va rivojlanish darajasi uning jamoaviy ongi va qadriyatlar tizimi bilan bevosita bogʻliqdir. Zamonaviy oliy ta'lim tizimida ham pedagoglarning mehnat faoliyati va faolligi ularning professional ongi, an'anaviy pedagogik qadriyatlari hamda raqamli muhit ta'sirida shakllanayotgan yangicha kasbiy koʻnikmalarining oʻzaro mutanosibligida namoyon boʻladi. Raqamlashtirish va kiberijtimoiylashuv jarayonlari ta'sirida pedagog shaxsining oʻz kasbiy oʻrnini anglashida an'anaviy va innovatsion qadriyatlar oʻrtasida murakkab tendensiyalar yuzaga kelmoqda. Olib borgan tadqiqotlarimiz shuni koʻrsatadiki, kiberijtimoiylashuv pedagoglarga raqamli ta'lim muhitida mustaqil kasbiy pozitsiyani shakllantirish, moslashuvchanlik va kreativlikni oshirish hamda oʻzaro kasbiy muloqotning yangi shakllarini

egallash imkonini beradi. Shu sababli kiberijtimoiylashuv jarayonining OTM pedagoglari faoliyatiga ta'sirini hamda ularda an'ana va innovatsiyalarni muvaffaqiyatli integratsiya qilish mexanizmlarini tadqiq etishni davom ettirish dolzarb ahamiyat kasb etadi, deb hisoblaymiz.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ham an'anaviy milliy va umuminsoniy qadriyatlarni saqlagan holda, ta'limga ilg'or innovatsiyalarni olib kirishni nazarda tutadi. Shunday ekan, OTMlarda inson kapitalini va pedagogik salohiyatni oshirishda kiberijtimoiylashuv imkoniyatlaridan unumli foydalanish hal qiluvchi o'rin tutadi.

Kiberijtimoiylashuv jarayonida insonda bir qator yangi, amalda kiberologik kutilmalar va manfaatlar, motivlar va maqsadlar, ehtiyojlar va qarashlar, shuningdek, kibermakon bilan bevosita bog'liq bo'lgan psixologik hamda ijtimoiy faollik shakllari paydo bo'ladi. Maslou tomonidan yaratilgan ehtiyojlar piramidasiga tayangan holda, internet foydalanuvchilari o'zlarining dolzarb ehtiyojlarini qondirishni ham, xayoliy, haqiqiy bo'lmagan qondirishni ham topadilar, deb taxmin qilish mumkin. O'z navbatida, bunday jarayon bir qancha qiyinchiliklarga olib kelishi ehtimoldan xoli emas. Chunki har bir shaxsning rivojlanishida, uning olamni anglashida o'ziga xos xususiyatlar mavjud.

S. Amanjolov nomidagi Sharqiy Qozog'iston universitetida ushbu yo'nalishga alohida e'tibor qaratilib, zamonaviy raqamli uskunalar bilan jihozlangan yangi laboratoriyalar hamda o'quv auditoriyalari foydalanishga topshirilgan.

Bu imkoniyatlar talabalarning yuqori darajada bilim olishi va mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishini ta'minlaydi. Universitetda yangi avlod pedagogik texnologiyalari asosida kadrlarni tayyorlashga xizmat qiluvchi yana bir muhim tuzilma — Raqamli pedagogika laboratoriyasi faoliyati yo'lga qo'yilgan. Ushbu laboratoriyaning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Zamonaviy IT-kompetensiyalarga ega bo'lgan va bugungi ta'lim tizimi talablariga javob beradigan pedagog kadrlar tayyorlash;
- Zamonaviy AOK vositalaridan samarali foydalanish sharoitida o'quv jarayonini pedagogik va psixologik loyihalashtirishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish;
- Qo'shimcha ta'lim shakllarini amalga oshirish hamda maktab va kollej pedagoglariga ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning samarali mexanizmlarini ta'minlash.

Raqamli pedagogika laboratoriyasida o'qitish raqamli ta'lim resurslari, masofaviy ta'lim texnologiyalari, onlayn o'qitish, raqamli ta'lim muhiti, kompyuter texnologiyalari kabi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha olib boriladi. Bular bilan bir qatorda, universitet professor-o'qituvchilariga o'quv-metodik materiallar, jumladan, masofaviy ta'lim formati uchun videoma'ruzalarni yozib olish, materiallarni jamlash va tayyor videomahsulot yaratishda ko'maklashuvchi zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlangan "Altay yoshlari" markazi hamda "Masofaviy ta'lim va elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish" laboratoriyasi mutaxassislari doimiy amaliy yordam ko'rsatib kelmoqda. Maktab bitiruvchilariga, masalan, Milliy yagona testga tayyorgarlik ko'rish uchun, pedagoglarga esa ish faoliyati uchun mo'ljallangan elektron resurslar, yangi IT-platformalar hamda resurslarning metodik to'plami taqdim etiladi. Bularga Qozog'iston Respublikasi Ta'lim va fan vazirligi metodik tavsiyalari asosida tayyorlangan videoma'ruzalar va videomaslahatlar kiradi. Hozirgi vaqtda universitet mutaxassislari turli mavzular va alohida o'quv fanlari bo'yicha o'qituvchilar uchun ko'plab videomateriallar tayyorlaganlar. Raqamli pedagogika laboratoriyasining yana bir imkoniyati esa universitet elektron kutubxonasi adabiyotlaridan maxsus sayt va elektron resurslar orqali foydalanishdir. Shuningdek, turli vebinarlar onlayn rejimda yuklab boriladi [3].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sharqiy Qozog'iston universiteti tajribasi shuni ko'rsatadiki, OTMlarda raqamli pedagogika laboratoriyasi kabi zamonaviy tuzilmalarning tashkil etilishi professor-o'qituvchilarning kasbiy kiberijtimoiylashuv jarayonini jadallashtirishning samarali mexanizmi hisoblanadi. Pedagoglarga raqamli ta'lim resurslarini yaratish, videoma'ruzalar yozish va masofaviy platformalar bilan ishlash bo'yicha tizimli ko'mak berish ularning raqamli ta'lim muhitiga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchining vaqt resurslarini tejash, ortiqcha tashkiliy yuklamalarni kamaytirish hamda bevosita ilmiy-pedagogik faoliyat unumdorligini, ya'ni mehnat samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Shu bois ushbu ilg'or xalqaro tajribani O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari amaliyotiga ham keng tatbiq etish hamda OTMlarda maxsus raqamli pedagogik markazlar faoliyatini yo'lga qo'yish bugungi kunda dolzarb muammolardan biri sifatida qayd etilishi mumkin. Mamlakatimiz OTMlarida pedagoglarning kiberijtimoiylashuv jarayonini qo'llab-quvvatlash va ularga sifatli raqamli kontent yaratish uchun sharoit hozirlash o'qituvchilar faoliyati unumdorligini yangi bosqichga olib chiqadi. Bu kabi tashabbuslar respublikamizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar doirasida raqamli universitet ekotizimini shakllantirish hamda ta'lim sifatini xalqaro standartlarga moslashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Universitet laboratoriyasi tomonidan taqdim etilayotgan elektron resurslar, videomateriallar hamda raqamli kutubxona platformalaridan erkin foydalanish imkoniyati pedagog va ta'lim oluvchilar o'rtasidagi masofaviy va gibrid muloqotni yangi bosqichga olib chiqadi. Bizningcha, OTM pedagoglarining ushbu turdagi raqamli platformalar va multimedia resurslaridan unumli foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishi ularning o'quv-metodik tayyorgarlik vaqtini tejash, axborot izlash va unga ishlov berish jarayonlarini soddalashtirish hamda umumiy kasbiy unumdorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Oliy ta'lim tizimining axborot savodxonligining yangi bosqichiga o'tishi pedagogik faoliyatda mutlaqo yangi psixologik-pedagogik yondashuvlarni taqozo etmoqda. Raqamli texnologiyalar va yangi IT-

vositalarni OTM o‘quv jarayoniga shunchaki joriy etish o‘z-o‘zidan ta’lim sifatini oshirmaydi yoki pedagoglar ish unumdorligini ta’minlamaydi. Ularning imkoniyatlaridan maksimal darajada unumli foydalanish va pedagoglarning mehnat samaradorligini oshirish uchun ta’lim sohasida kiberpsixologiya hamda kiberpedagogika bilimlarini chuqur tadqiq etish, rivojlantirish va amaliyotga faol tatbiq etish zarur. Axborotni bilimga va kasbiy ko‘nikmaga aylantirish manbalarining xilma-xilligiga qaramay, asosiy transformatsiya baribir inson ongida sodir bo‘ladi. Shu sababli OTM pedagoglarining kibermakon bilan zich hamkorligi ularning kasbiy dunyoqarashi, raqamli faoliyat madaniyati va ish tartibini qayta shakllantiruvchi hal qiluvchi omildir. Pedagoglarning kiberijtimoiylashuvi doirasida yuzaga keladigan ijobiy imkoniyatlar va ehtimoliy salbiy ta’sirlarni to‘g‘ri baholash kasbiy ko‘nikmalarni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Насимов М. Ө., Сабитов А. Ғ. Дәстүрлі және инновациялық құндылықтар аясындағы тұлғаның өзін-өзі анықтауы // Адам әлемі. – 2025. – № 3 (103). – Б. 54–63.

2. Се Яцзин. Киберсоциальный подход к повышению эффективности труда в цифровой экономике: дис. ... канд. экон. наук / Крымский федеральный университет имени В. И. Вернадского. – Симферополь, 2025. – 180 с.

3. Igibayeva A., Erbolatuly D., Turarova G. Киберәлеуметтендіру: беталысы және келешегі // Pedagogy and Psychology. – 2020. – Т. 45, № 4. – С. 115–123.